

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ORIENTAL UNIVERSITETI

TADJIYEVA UMIDA FAXRIDDINOVNA

**ARAB VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNING
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UO‘K: 811.411.21’512.133:81’25:82
KBK: 81.2-3/7 (5Arab+5Uzb)
T-12

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Table of content dissertation abstract of the doctor of philosophy
(PhD) on philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по филологическим наукам**

Tadjiyeva Umida Faxritdinovna

Arab va o‘zbek tillaridagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari 3

Таджиева Умида Фахритдиновна

Лингвокультурологические особенности пословиц на арабском и
узбекском языках 25

Tadjiyeva Umida Fahkritdinovna

Linguocultural features of Arabic and Uzbek proverbs 49

E’lon qilingan ishlar ro’yxati

List of published literature

Список опубликованных работ 53

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ORIENTAL UNIVERSITETI

TADJIYEVA UMIDA FAXRIDDINOVNA

**ARAB VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNING
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respubikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil4208 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Oriental universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsous.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nasirova Malika Anvarovna

filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Shomusarov Shorustam G‘iyosovich

filologiya fanlari doktori, professor

Jo‘rayeva Bibish Muhsinovna

filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100060, Toshkent, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (999871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel:(99871) 233-45-21).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____ dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

A.M.Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

N.R.Ismatullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filol.fan.b.fals.d. (PhD), dotsent

X.Z.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon tilshunosligida o‘tgan asrning birinchi choragidan boshlab til birliklarini lingvomadaniy aspektda o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi. Bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqot ishlarida til yaxlit sistema sifatida baholanib, uning birliklari o‘zaro aloqa-munosabatda o‘rganildi, lisoniy birliklarining nutqiy voqelanishi va bu jarayonda yuzaga chiqadigan ma’nolar tahlilga tortildi. Til birliklari o‘zaro aloqa-bog‘lanishda va ziddiyatda o‘rganilishi natijasida ularning bevosita ko‘zga tashlanmaydigan xususiyatlariga aniqlik kiritildi. Bugungi kunda dunyo maqollarining struktur-semantik, milliy-mental, kognitiv, universal va lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganishda birmuncha yutuqlarga erishilgan. Shunga qaramay, mazkur yo‘nalishning hozirgacha dolzarb bo‘lib kelayotgan masalalari yo‘q emas. Xususan, arab va o‘zbek xalq maqollarini lingvomadaniy aspektda o‘rganish chog‘ishtirma tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida har bir xalqning mental xususiyatlari, til qonuniyatlar, poetik tafakkuri tadriji bilan chambarchas bog‘langan paremiya namunalar, jumladan, xalq maqollarini o‘rganishning prinsip va metodlari, ilmiy nazariy asoslari borasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, ushbu maqollar bir til doirasida emas, qardosh va noqardosh tillardagi paremiyalarning farqli hamda o‘xhash xususiyatlarini o‘rganish, ularni qiyosiy-tipologik asosda tahlil qilishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Natijada, maqollarning turli tizimli tillar doirasidagi xususiyatlarini chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslikning ilmiy-amaliy asoslarini yanada mustahkamlashga bir tildan boshqa tilga o‘girish tamoyillarini ilmiy-nazariy jihatdan aniqlash va yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda mustaqillikdan so‘ng nafaqat xorijiy tillarni, balki milliy tilimizni ham xorij tillari bilan qiyosiy aspektda ilmiy o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bu yo‘nalishda olib borilgan qator ishlarda o‘zbek tili qardosh va noqardosh tillar bilan chog‘ishtirma aspektda ilmiy tadqiq etildi. Natijada tilimizga xos alohida xususiyatlar chuqur ochib berildi. Bugungi globallashuv davrida bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish davr taqozosiga aylanmoqda. Zero, turli tillarga xos birliklarni qiyosiy aspektda o‘rganish ularning umumiy va xususiy jihatlarini aniqlashga imkon beradi. Shu ma’noda arab va o‘zbek xalq maqollarining lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish nafaqat ikki tilga mansub birliklarning lingvistik xususiyatlarini aniqlashga, balki turli xalqlarning milliy-madaniy qarashlari, tafakkuri, voqelikka munosabati kabi masalalarga aniqlik kiritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tanlangan mavzuning dolzarbliji va ilmiy tekshirish zaruratini asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-noyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son¹, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.10.2020 yildagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-5058351>

yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi² PF-60-son Farmonlari, 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4680-son³, 2021-yil 19-maydagи “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son⁴ Qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq tarzda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab maqollar turli aspektlarda tadqiq etila boshlandi⁵. Shu jumladan, arab va o‘zbek tilshunosligida ham har ikki tildagi xalq maqollari lingvistik va xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida o‘rganilgan. Xususan, o‘zbek tilshunosligida X.Abdurahmonovning tadqiqotida maqollarning sintaktik xususiyatlari tahlil qilingan⁶. B. Jo‘rayeva o‘zbek xalq maqollarini semantik-uslubiy jihatdan o‘rgangan va birinchi bo‘lib “O‘zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug‘ati” ni yaratgan⁷. M.Sadriddinovaning tadqiqot ishida esa o‘zbek xalq maqollari leksikasi tadqiq etilib, o‘zbek adabiy tili va shevalari bilan qiyoslangan⁸. P.Bakirovning tadqiqotida nominasentrik maqollarning semantik-struktur xususiyatlari rus, o‘zbek va qozoq tili materiallari asosida yoritilgan⁹. D.Toshevaning tadqiqotida zoonim

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5841063>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.04.2020 yildagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, <https://lex.uz/docs/-4791086>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021 yildagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, <https://www.lex.uz/uz/docs/-5426736>

⁵ Воробьев П.Г. Пословицы и поговорки в художественном творчестве и письмах А.С.Пушкина// Русский язык в школе. – М.: 1949. – №4. – С. 18-22; Ткаченко В.П. Вопрос о пословицах как материале фразеологии// Уч. зап. Саратовс. гос. пед. инс. Вып. XXX, 1958. – С. 123-127; Гаврин С.Г. К вопросу об отличии пословицы от поговорки в совр. русс. лит-ном языке// Уч. зап. Пермского госпединститута. Вып. 17. 1958. – С. 42; Карриев Б.М. Туркменские пословицы и поговорки. – Ашхабад: 1961. – 162 с.; Сарсенбаев Р. Лексико-стилистические особенности казахских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата: 1961. – 24 с. Жўрахонов А. Мукийининг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1974. – №4. – Б. 52-55; Тўйчиев М. “Шинелий йиллар” романыда халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши// Ўзбек фразеологиясидан тадқиқотлар. СамДПИ асарлари. – Самарқанд: 1971. – Б. 84-87.

⁶ Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент: 1977. – 48 с.

⁷ Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз. ... дис. – Самарқанд: 2002. – 136 б.

⁸ Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: 1985. – 18 с.

⁹ Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент: 2007. – 286 с.

komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lsa¹⁰, N.Abdullayeva ingliz va o‘zbek xalq maqollarining graduonimik munosabatlarining lingvopragmatik xususiyatlari¹¹, O.Uralova ingliz va o‘zbek tillarida “oila” bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi¹² to‘g‘risida tadqiqot ishlarini olib borgan. A.Paizbekova esa “Ingliz, rus, o‘zbek va qozoq tillari maqollaridagi vaqt reprezentatsiyasining lingvokognitiv aspekti”ni tadqiq qilgan¹³.

Arab tilshunosligida Muhammad As-Sulaim arab maqollarining chog‘ishtirma tadqiqini olib borgan, Wafa Abu Bakr arab tilini o‘qitishda maqollarning o‘rni haqida ilmiy ish yozgan, Inam Ismael Taher arab va ingliz maqollarini kognitiv va semantik jihatdan chog‘ishtirma aspektida o‘rgangan¹⁴. Shuningdek, Sh.Shomusarov arab xalq maqollarini folklor nuqtai nazaridan o‘rgangan¹⁵. A.Qahhorov “Al-Johizning “Kitab al-hayavan” asarida “Masal” nomli nomzodlik disseretatsiyasida maqol va matallarning grammatik qurilishini mavzular bo‘yicha keng tahlil qilgan¹⁶. Arab folklori va unda maqollar haqida T.Muxtarov o‘zining nomzodlik disseretatsiyasida yoritib o‘tgan¹⁷.

Shuningdek, T.Shayxullin arab xalq maqollarini rus maqollari bilan chog‘ishtirib, etnomadaniy aspektida tadqiq etgan¹⁸. Mavzu doirasida E.Kuxareva hamda V.Ushakovning monografik xarakterdagи ayrim tadqiqot ishlari ham bor¹⁹. Shunga qaramay, arab tilidagi maqollarni o‘zbek tilidagi maqollar bilan chog‘ishtirma aspektida o‘rganish, bu ikki tildagi maqollarning semantik xususiyatlaridagi farqli jihatlarini ajratish, lingvomadaniy xususiyatlarini olib berish bugungi kundagi dolzarb vazifa sanaladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Oriental universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasing “Sharq mamlakatlari tillarini o‘rganish va tilshunoslikning nazariy masalalari” mavzusidagi ilmiy-nazariy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

¹⁰ Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дис. – Тошкент, 2017. – 151 б.

¹¹ Абдуллаева Н. Инглиз ва ўзбек халқ мақолларининг градуонимик муносабатларининг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дис. – Тошкент: 2019. – 174 б.

¹² Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” бosh лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дис. – Самарқанд: 2021. – 144 б.

¹³ Паизбекова А.Д. Инглиз, рус, ўзбек ва козоқ tillлари мақолларидаги ваqt reprezentatsiyasining lingvokognitiv aspekti: Филол.фан.б. фалс. док. (PhD) автореф. – Тошкент: 2019. – 52 б.

¹⁴ Muhammad As-Sulaim. A critical and comparative study of modern najdi Arabic proverbs: For the degree of Doctor of Philosophy. January, 1976. – 555 p; Wafa Abu Bakr. The importance of proverbs in teaching Arabic. American University in Cairo, 2002. – 137 p; Inam Ismael Taher. A Cognitive Semantic Study of the impact of socio-cultural factors on meaning. – Iraq: 2019. – 321 p.

¹⁵ Шомусаров Ш. Араб ва ўзбек фольклори тарихий-қиёсий таҳлили. – Тошкент: Фан, 2002. – 316 б; Shu muallif. Арабский фольклор. – Ташкент: Fan. 1992. – 151 с.

¹⁶ Қаххоров А.С. Ал-Жоҳизнинг “Китаб ал-ҳаявон” асарида “Масал”: Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент: 1993. – 200 б.

¹⁷ Мухтаров Т.А. “Киссат ал-амир Хамза ал-Бахлаван” – образец средневекового книжного арабского эпоса (опыт анализа): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М.: 1983. – 17 с.

¹⁸ Шайхуллин Т.А. Русские и арабские паремии с компонентом-наименованием родственных отношений: концептуально-семантический и этнокультурный аспекты: Автореф. дис. ... д-ра. филол. наук. – Казань: 2012. – 48 с.

¹⁹ Ушаков В.Д. Фразеология Корана (Опыт сопоставления фразеоречений Корана и арабского классического языка) – М.: Восточная литература, 1996. – 203 с.; Кухарева Е.В. Арабские пословицы и поговорки. Словарь с лексико-фразеологическими комментариями / Е.В. Кухарева. – М.: ACT: Восток-Запад, 2008. – 303 с.

Tadqiqotning maqsadi arab va o‘zbek tillaridagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlarini chog‘ishtirma aspektida o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paremiologiya va maqollar tadqiqiga oid ilmiy- nazariy bazalarni jamlash va ular asosida ilmiy xulosalar chiqarish;

arab va o‘zbek tillaridagi xalq maqollarini semantikasiga ko‘ra mavzuiy guruhlarga ajratib, ularning xalq madaniy hayotida tutgan o‘rnini ohib berish;

arab va o‘zbek tillaridagi xalq maqollarini lingvomadaniy jihatlariga ko‘ra ularning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlash;

arab va o‘zbek tillaridagi xalq maqollarining milliy-madaniy belgilari, mazkur ikki tildagi ayollar, qarindosh-urug‘chilik, diniy mavzulardagi maqollarning universal xususiyatlarini tasniflab, tahlil qilish;

Tadqiqotning obyekti sifatida To‘ra Mirzayev tomondan nashrga tayyorlangan “O‘zbek xalq maqollari”²⁰ hamda “مجمع الأمثل” (“Maqollar to‘plami”)²¹ to‘plamlaridagi arab va o‘zbek xalq maqollari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti etib arab va o‘zbek xalq maqollarining lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Ishda tavsifiy, komponent tahlil, semantik, lingvomadaniy, chog‘ishtirma va statistik tahlil metodlari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paremiologiya va maqollar tadqiqiga oid bir necha ilmiy-nazariy bazalar jamlandi, ular asosida maqollarni paremiologik birliklardan farqlash mezonlari keltirildi, maqollar asosida yuzaga keladigan semantik chegaralar yoritildi;

ilmiy tadqiqot doirasida jalb etilgan arab va o‘zbek tillaridagi xalq maqollari semantikasiga ko‘ra bir necha mavzuiy guruhlarga ajratildi, adabiy tildagi maqollar bilan birga, shevadagi maqollarning ham xalq hayotida muhim o‘rin egallashi dalillandi;

arab va o‘zbek tillaridagi semantik jihatdan umumiy va farqli bo‘lgan xalq maqollari tahlil qilindi. Unga ko‘ra har ikki xalqda diniy e’tiqodga oid va zoomorfik maqollar mushtarak ekanligi, geografik joylashuv, ijtimoiy tuzum va ranglarga oid maqollar farqliligi aniqlandi.

arab va o‘zbek tillarida mavjud ayollar, qarindosh-urug‘chilik va diniy mavzulardagi maqollar o‘rganilganda, oiladagi patriarxal munosabatlar, kattalarga bo‘ysunish kabi mushtarak jihatlar ochiqlandi, maqollarda o‘ziga xos leksik birliklar va madaniy obrazlarning ifodalanishi kabi farqli xususiyatlar aniqlandi, hamda ularning shakllanishining ijtimoiy hayot va an‘analar bilan bog‘liq tarixiy asoslari dalillandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot jarayonida 1000 ga yaqin arab va o‘zbek tillaridagi xalq maqollari o‘rganilgan. Ularning chog‘ishtirma tahlili orqali har ikkala xalqqa tegishli bo‘lgan milliy-madaniy, universal xususiyatlar, maqollarda ifodalangan xalq mentalitetiga oid o‘ziga xosliklar tahlil qilingan;

²⁰ Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 257 b. Keying o‘rinlarda mazkur kitob O‘XM shaklida va yonidan maqol olingan beti ko‘rsatiladi.

²¹ احمد بن محمد ميداني. مجمع الأمثل. الصفحة ٧٩٨. ١٥ أبريل ٢٠١٦.

o‘zbek tilida vatan, ona, qo‘snnichilik mavzularida arab xalq maqollarining ba’zilari aynan qo‘llanilishi; yaxshilik, pand-nasihat mavzularida leksik birliklar turlicha ifodalanganligi aniqlangan;

arab va o‘zbek xalq maqollarining chog‘ishtirma tahlili asosida xalq hayotidagi stereotiplarning umumiy va xususiy jihatlari dalillangan;

tadqiqotda keltirilgan dalillar tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik kabi yo‘nalishlarga zarur material hamda paremiologik, konseptologik lug‘atlarni yaratishda manba bo‘lishi belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi arab va o‘zbek maqollarini to‘plashda aniq, ishonchli nazariy manbalarga tayanilganligi, chiqarilgan xulosalarning tavsiflash, tasniflash, semantik tahlil kabi tadqiq metodlari orqali asoslanganligi, tadqiqot xulosalari va tavsiyalari amaliyotga tatbiq etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, olingan ilmiy xulosalar arab va o‘zbek maqollarini chog‘ishtirma aspektida tahlil etish, tadqiqotlarni arab va o‘zbek xalqi madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlari haqidagi nazariy bilimlar bilan boyitishi etib belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati arab va o‘zbek xalq maqollarini lingvomadaniy xususiyatlari misolida amalga oshirilgan chog‘ishtirma tahlillar “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Qiyosiy tilshunoslik”, “Pragmalingvistika”, “Nutq madaniyati”, “Kommunikativ tilshunoslik” fanlarini o‘qitish, filologiya yo‘nalishi bakalavriyat va magistratura bosqichlarida maxsus kurs hamda seminarlar tashkil etish, darslik va qo‘llanmalar yaratish, ikki tilli lug‘atlar tuzish hamda tarjimalarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Arab va o‘zbek xalq maqollari tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

arab va o‘zbek tilidagi ayollar, qarindosh-urug‘chilik hamda diniy mavzulardagi xalq maqollarida xalq hayoti, urf-odatlari, diniy e’tiqodi kabi milliy-madaniy xususiyatlardan olingan fikrlaridan Toshkent islom institutida foydalanilgan (O‘zbekiston Musulmonlar idorasining 03-12-2024 yildagi 02-03/3012-son ma’lumotnomasi). Natijada maqollar har ikki xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini, olamning lisoniy manzarasini aks ettiruvchi asosiy namunalarini qo‘llash orqali xalq mentalitetini aks ettirishi masalalari o‘z yechimini topgan;

o‘zbek va arab tillaridagi ayollar, qarindosh-urug‘chilik hamda diniy mavzulardagi maqollarning semantik tuzilishi ohib berilgan va ularning oiladagi patriarchal munosabatlar kabi mushtarak, o‘ziga xos madaniy obrazlarning ifodalanishi kabi farqli xususiyatlardan olingan natijalaridan 2020-2021- yillarda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan “O‘zbek milliy raqs san’atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug‘atlar) to‘plamini yaratish” mavzusidagi IZ-2019081663 raqamli fundamental loyiha doirasida “O‘zbek milliy raqs terminlarining qisqacha o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 21-10-2024 yildagi 1/04-132-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha arab va o‘zbek xalq maqollarida kelgan terminlar bilan boyitilgan;

arab va o'zbek tillarida mavjud ayollar, qarindosh-urug'chilik va diniy mavzulardagi ayrim maqollarning shakllanishining ijtimoiy hayot va an'analar bilan bog'liq tarixiy asoslari orqali dalillangan ilmiy-nazariy fikrlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi davlat muassasasining 13-09-2024 yildagi 02-25-10.11-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvning ashyoviy bazasi mustahkamlangan hamda o'zbek teleauditoriyasi uchun arab xalq maqollarining o'ziga hos jihatlari bo'yicha yangi ma'lumotlarni olishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ish nashr qilingan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 124 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy ish mavzusining dolzarbliji va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti berilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangili va amaliy natijalari asoslanib tadqiqot usullari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi, olingan natijalarning ishonchliligi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

"Arab va o'zbek tilshunosligida xalq maqollarining o'rganilishi" deb nomlangan birinchi bobda maqollarning tilshunoslik sohasida o'rganilishining ahamiyati, arab va o'zbek tilshunosligida maqollar tadqiqining nazariy asoslari hamda xalq maqollarining semantik aspektida o'rganilish masalalari yoritilgan. Bobning "Maqollar tilshunoslik sohasining tadqiqot obyekti sifatida" nomli birinchi faslida maqollarni tilshunoslik sohasida o'rganilish masalalari, maqol va matallarning farqli xususiyatlari yoritilgan.

Maqollarni nafaqat adabiyotshunoslik yoki folklorshunoslikda, balki tilshunoslikda ham o'rganish muhim hisoblanadi. V.Maslovaning yozishicha, maqol va matallar, odatda folklorda alohida janr sifatida o'rganilgan, tilshunoslikda esa ularni o'rganish endigina boshlanmoqda. V.Maslova lingvokulturologiyada faqat tabiatni va faoliyati muayyan xalqning tarixi, madaniyati va hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maqol va matallarni hisobga olish kerakligini ta'kidlaydi²². Shuningdek, E.Mezensevaning yozishicha, maqol va matallarga ham xalq mentalitetining in'ikosi sifatida kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraladi.

²² Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 208.

Maqol mentaliteti maqolning mentaliteti emas, balki xalqning, aniqrog‘i, xalqning muayyan ijtimoiy guruhlari aks ettirilgan mentalitetdir²³.

Maqollar lingvistika obyekti bo‘lishining yana bir sababi turli tillardan ularni tarjima qilishda har xil muammolarning yuzaga kelishidadir. Tarjima aspekti tarjima nazariyasi va badiiy amaliyotda yuzaga keladigan turli muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bu jihat kontrastiv usul bilan bog‘liq, ammo bir qator muhim va o‘ziga xos omillar mavjud: tarjimonning malakasi, tillarning paremiologik fondini bilish, yozuvchi – badiiy asar muallifining niyatini tushunish. Bundan tashqari, maqollarni tarjima qilish “tarjimondan xalqning madaniyati va milliy o‘ziga xosligini yaxshi bilishni, funksional dominantlarni, hissiy-ekspressiv fonni va stilistik xususiyatlarni saqlashni talab qiladi”²⁴.

Hozirgi kunda maqolning zamонавиъ tilshunoslikdagi o‘rnini aniqlash va uning maqomini belgilash masalasi dolzarb sanaladi. Sababi xalq hayotining kechagi va bugungi holatini aks ettiradigan maqollarning ko‘p qirraliligi, xilma-xilligidadir. Bundan tashqari, paremiya tushunchasining keng ko‘lamli ekanligi, asosan ko‘chma ma’noli birliklarni o‘z ichiga olishi, turg‘un shaklga ega ekanligi bilan bog‘liq²⁵. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan maqol ham matn, ham ishora xususiyatiga ega (E.Ivanova, G.Permyakov)²⁶, til belgisi maqomiga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng murakkab shakllangan birlik (V.Gvozdev)²⁷ hisoblanadi. Devid Kramning fikricha, maqol ichki va tashqi tuzilishi o‘zgarmas birlik sifatida esda qoladigan va nutqda qayta-qayta qo‘llanishi mumkin bo‘lgan leksik elementdir. Maqollar maishiy va shaxslararo munosabatlar doirasini aniqlash, bu madaniy kategoriyalarni avloddan avlodga yetkazishga xizmat qiladi²⁸.

Umuman olganda, chet tilining, masalan, arab tilining lingvomadaniy jihatini o‘rgatishda arab maqollarini milliy mentalitetning in’ikosi sifatida keltirish nutqni yanada jozibador qiladi, chunki tilshunoslik nuqtayi nazaridan maqollar madaniyatni tashuvchi birlik sanaladi. Ular nutq jarayoniga turg‘un holda olib kiriladi, og‘zaki va yozma nutqda faol qo‘llaniluvchi, fikrni ixcham ifodalashga yordam beruvchi birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

“Arab va o‘zbek tilshunosligida xalq maqollarari tahlilining tarixiy-nazariy asoslari” nomli ikkinchi faslida arab va o‘zbek xalq maqollarini o‘rganilish tarixi yoritilgan.

Arab maqol va matallarining o‘rganilish tarixi hijriy II asrdan boshlangan. Arab xalq maqollarining eng qadimgi to‘plami iroqlik (Kufa) tilshunos hamda johiliya davri she’riyatini o‘rganuvchi mutaxassis Mufaddal ad-Dabi (vaf. 786)ga tegishli

²³ Мезенцева Е.С. Пословичный фонд языка как фрагмент языкового сознания этноса// Вестник КазНУ. – 2005. – №2. – С. 23-26.

²⁴ Koloshis A.G. Methods of translating paroemiological units into Russian (based on Russian fiction)// In Ideas. Search. Decisions: a collection of articles and abstracts of the IX International scientific-practical. conf. – Minsk, November 25, 2015, 6 (4). – Р. 12.

²⁵ Антонова Е.Н., Бредис М.А., Владимирова Т.Е. Паремиология без границ. Изд-во РУДН. – М.: 2020.– С. 25.

²⁶ Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – 235 с. Иванов Е.Е. Паремиологический минимум и основной паремиологический фонд // Паремиология в дискурсе: Общие и прикладные вопросы паремиологии. Пословица в дискурсе и в тексте. Пословица и языковая картина мира/ Под ред. О.В. Ломакиной. – М.: Ленанд, 2015. – С. 48–66.

²⁷ Гвоздев В.В. Место пословиц как структурно-семантических образований в языке. Дис...канд. филол. наук. М.:1983. - 207 с.

²⁸ Антонова Е.Н., Бредис М.А., Владимирова Т.Е. Паремиология без границ. Изд-во РУДН. – М.: 2020. – С. 26.

bo‘lgan “Al amsalu-l-arobiyyatu” (الأمثال العربية) kitobi hisoblanadi. Ushbu asar klassik arab maqollarining eng mashhur to‘plami bo‘lib, VIII asrga tegishlidir. To‘plam 1882-yilda Istanbulda chop etilgan²⁹. Shuningdek, Xamza al-Isfahoniy (vaf. 961) ham arab maqollarini to‘plashda salmoqli ishlar qilgan. U asli Erondan bo‘lib, Bag‘dodda yashagan. Xamza al-Isfahoniy umrini arab tilini o‘rganishga, undagi ma’naviy merosni fors tili bilan solishtirib, ko‘pgina ilmiy asarlar yaratishga sarflagan. Uning “Durratu-l-faxiro” (الدرة الفاخرة) nomli maqollar to‘plami qo‘lyozmasi Germaniyaning Myunxen kutubxonasida saqlanadi³⁰. Ushbu kitobning bir qismini yana bir mashhur olim Ahmad ibn al-Husayn al-Maydoniy (vaf. 1124) o‘zining “Majmau’-l-amsal” (مجمع الأمثال) – (Maqollar to‘plami) nomli kitobiga kiritgan³¹. Arab tiliga oid ilmlarning keng tarqalishida salmoqli hissa qo‘shgan Mahmud Zamaxshariyning “Al-mustaqso fi amsali-l-arab” (المستقسي في امثال العرب) asari ham maqollar yetib kelishida muhim manba sanaladi. Olim ushbu asariga turli davrlarning hikmatli so‘zlari hamda “Kalila va Dimna”dagi ba’zi ibratli hikoyalarni kiritgan³².

Maqol va matallarni o‘rganish, to‘plash bugungi kunda ham davom etmoqda. Bunga Mujir ad-Duriyning “Iroq maqollari va so‘zlari va axloqiy xarakter”, Abd al-Latifa ad-Dileishi “Basra xalq maqollari”, Abd al-Xaliq ad-Dabbag“Mosul maqollari to‘plami”, Mahmud Ismoil Sinyiy, Nasif Mustafo Abdul Aziz, Mustafo Ahmed Sulaymon tuzgan “Arabcha maqollar ensiklopediyasi” asarlari misol bo‘la oladi. Xanna al-Faxuriy o‘z to‘plamida maqollarni arablar tarixidagi muhim davrlar: islomgacha bo‘lgan davr “Johiliya”, “Abbosiylar davri” kabilar bilan bog‘lab o‘rgangan³³.

O‘zbek xalq maqollarining o‘rganilish tarixi eng avvalo XI asrda yaratilgan, turkiy tillar haqidagi qomusiy asar Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari bilan boshlanadi. Mahmud Koshg‘ariydan so‘ng xalq maqollariga alohida munosabat va e’tibor XIX asrga qadar uchramaydi. XIX asrga kelib, Muhammad Sharif Gulxaniy o‘zining “Zarbulmasal” asarida turkiy xalq maqollaridan keng foydalangan. Ushbu asar ishtirokchilarining nutqlari xalq maqollari, matal, hikmat va qoliplangan birikma hamda iboralardan keng foydalaniib yozilgan³⁴.

O‘zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to‘plamlar tuzish ishlari esa XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. “Masalan, venger olimi H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiya-lug‘atiga o‘zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo‘lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan. Shundan keyin birin-ketin N.Ostromov, B.Rahmonov, Sh.Jo‘rayev, H.Zarifov, B.Karimov, Sh.Rizayev, O‘.Azimov, O‘.Xolmatov, M.Afzalov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov, R.Jumaniyozov, E.Siddiqov, B.Sarimsoqov, I.Haqqulov, A.Musoqulov, R.Zarifov, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov kabi folklorshunoslar,

²⁹ المفضل بن محمد الضبي. أمثال العرب. بيروت. لبنان. ٢٠٠٩-٢٠٠٦-٢٤٠٢.

الدرة الفاخرة في الأمثال السائرة. المؤلف: حمزة بن الحسن الأصفهاني، حمزة بن الأصفهاني. الناشر: دار المعارف، صفحة 4848

³⁰ احمد بن محمد ميداني. مجمع الأمثال. الصحفة ١٥. ٧٩٨. ٢٠١٦

³¹ المؤلف: أبو القاسم محمود بن عمر الزمخشري. المستقسي في أمثال العرب. (المتوفى: ٥٣٨هـ) الناشر: دار الكتب العلمية - بيروت الطبعة: الثانية، ١٩٨٧م

³² Максудов У. Арабские пословицы и поговорки: Возникновение и развитие паремиологических словарей в арабской литературы// Вестник Санкт-Петербургского университета. – С.-П.: 2012. – С. 106.

³³ Мадаев О., Собитова Т. Халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Шарқ, 2010 – Б. 35.

fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagи va turli hajmdagi maqollar to‘plamlari nashr etildi”³⁵.

“Tilshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishida M.Abdurahimov, X.Abdurahmonov, M.Sodiqova, H.Karomatov, K.Karomatova, H.Berdiyorov, R.Rasulov kabi olimlarning ishlari yuzaga keldi”³⁶.

Bobning “Arab va o‘zbek tilshunosligida xalq maqollarining semantik aspektida tadqiqi masalalari” nomli uchinchi faslida har ikki xalq maqollarini semantik aspektida o‘ziga hos xususiyatlarini o‘rganilishi yoritilgan.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida til birliklarining semantik xususiyatlarini o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bu yo‘nalishda ko‘plab izlanishlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Xususan, arab va o‘zbek tillaridagi maqollarining semantik xususiyatlarini o‘rganish chog‘ishtirma tilshunoslikning dolzARB muammolaridan biridir. Arab va o‘zbek maqollarining lingvistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu ikki xalq maqollarida mushtarak va farqli semantik xususiyatlar mavjud.

Arab xalq maqollarining o‘rganilishida Sh.Shomusarovning xizmatlari katta. U maqollarni folklorshunoslik nuqtayi nazardan o‘rganib, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini ham yoritib o‘tgan. Olimning qayd etishicha, “Arab mamlakatlarining deyarli barchasida xalqning ijtimoiy tengsizlik,adolatsizlik, zo‘ravonlik va bosqinchilikni qoralaydigan maqollari juda ko‘p. Odatda bunday maqollarda halol mehnat, olıyjanob do‘stlik, vatanga muhabbat ulug‘lanadi. XVII asr Suriya xalq maqolining badiiy matniga asos bo‘lgan “Etikdo‘z yalangoyoq yurar” iborasi ayrim mamlakatlarda hozirga qadar ibratli naql sifatida keng qo‘llaniladi. XIX asrda Suriyada - - الإسکافی حافی والحاکی عریان “Al-iskafi hafi va-l-hayik uryan” (Etikdo‘z oyoq kiyimga, tikuvchi ko ‘ylakka yolchimas), Makkada esa - - الإسکافی حافی “Al-iskafi xafi” (Etikdo‘z oyoq kiyimga yolchimas) maqollari juda mashhur bo‘lgan. Bu maqollar o‘zbeklarning “Bo‘zchi belbog‘ga yolchimas”, “Kulol siniq kosada suv ichar” kabi an‘anaviy maqollariga ma’nodoshdir”³⁷.

O‘zbek tilshunosligida maqolning sintaktik xususiyatlari X.Abdurahmonov, o‘zbek maqol va matallarining lug‘aviy xususiyatlari M.Sadriddinova, maqollarning ko‘p ma’noliligi, sinonimligi, variantliligi va ularning uslubiy xususiyatlari B.Jo‘rayeva, o‘zbek, rus va qozoq tilidagi maqollarining semantik va struktur xususiyatlari P.Bakirovning tadqiqotlarida batafsil o‘rganilgan. Undan tashqari, bu maqollarning turli qirralari bilan bog‘liq B. Jo‘rayevaning “O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari” nomli doktorlik dissertatsiyasi, D.Turdaliyevaning “O‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik xususiyatlari”, D.Toshevaning “Zoonim komponentli maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari”, Sh.Qalandarovning “O‘zbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollari evfemizatsiyasi”, Y.Nurovaning “O‘zbek xalq paremalarining etnolingvistik xususiyatlari” (kiyim va oziq-ovqat nomlari asosida), M.J.Sharipovaning “Chorva nomlari asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari (“qo‘y” lug‘aviy ma’noviy guruhi asosida”), G.Samandarovaning “Hasharot” lug‘aviy ma’noviy guruhi asosida

³⁵ Мирзаев Т. Сўздан сўзнинг фарқи бор/ Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2016. – Б. 2.

³⁶ Мирзаев Т. Keltirilgan manba’. – Тошкент: Шарқ, 2016. – Б. 2.

³⁷ Шомусаров Ш. F. Араб ва ўзбек фолклори тарихий-киёсий таҳлили. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 62.

shakllangan o‘zbek xalq paremalarining lingvistik asoslari va leksik-semantik xususiyatlari”³⁸ kabi qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Arab va o‘zbek xalq maqollarining mavzuiy guruhlari va semantik tavsifi**” deb nomlanadi. Ushbu bobda arab va o‘zbek xalq maqollarining mavzuiy guruhlari, semantik tasnifi, umumiy hamda farqli jihatlari yoritilgan. Bobning “*Arab xalq maqollarining mavzuiy tasnifi va semantik xususiyatlari*” nomli birinchi faslida arab maqollari mavzuiy guruhlarga ajratilgan, bir nechta guruhdagi maqollar tahlil qilingan.

E.Kuxareva fikriga ko‘ra, lingvistik klishelarda mujassamlangan va ierarxiyasida arablar milliy mentalitetining o‘ziga xosligi namoyon bo‘lgan eng muhim tushunchalar quyidagilar: *iymon, taqvo, sabr-toqat, bag‘rikenglik, qo‘shnichilik munosabatlari, kuch, ikkilamchi juftliklar: jasorat – qo‘rqaqlig; sharaf – sharmandalik; saxiylik, mehmondo‘stlik – baxillik, ochko‘zlik – halollik, rostgo‘ylik – yolg‘onchilik; haqiqat – yolg‘on; aql, bilim – jaholat, shuningdek, qarindoshlik, oila yoki qabila, ota-ona – bolalar; qabilaviy ruh, oilaga sodiqlik; katta-kichiklar va ular o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil qiladi*³⁹.

“Arab maqollar” to‘plamlarida⁴⁰ maqollar mavzuiy guruhlarga ajratilmaydi, alifbo tartibida beriladi. Har bir harfga bag‘ishlangan guruhda turli mavzudagi maqollar o‘rin olgan. Arab tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda⁴¹ ham maqollar mavzuiy guruhlari berilmagan. Tadqiqotimiz uchun foydalangan o‘nga yaqin ilmiy maqolalarda ham maqollar mavzuiy guruhlarga ajratilganini kuzatmadik⁴². Lafta Adnan, Yu.Listrova hammualliflikda yozgan

³⁸ Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН Уз, 1964. – 18 с.; Садриддина М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: 1985. – 18 с.; Жўраева Б. Маколларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Самарқанд: 2002. – 24 б.; Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис. ... док. филол. наук. – Ташкент: 2007. – 286 с.; Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шакланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: филол. фан. д-ри. (DSc) ... дис. – Самарқанд: 2019. – 237 б.; Турдалиева Д. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дис. – Қарши: 2019. –144 б; Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокултурологик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дис. – Тошкент: 2017. – 134 б.; Қаландаров Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дис. – Кўқон: 2019. – Б. 134; Nurova Y.U. O‘zbek xalq paremalarining etnolingvistik xususiyatlari (kiyim va oziq-ovqat nomlari asosida): Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ... dis. – Buxoro: 2022. – 149 b.; Sharipova M.J. Chorva nomlari asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari (“qo‘y” lug‘aviy ma‘noviy guruhi asosida): Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ... dis. – Buxoro: 2023. – 144 b.; Samandarova G. “Hasharot” lug‘aviy ma‘noviy guruhi asosida shakllangan o‘zbek xalq paremalarining lingvistik asoslari va leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. – Buxoro: 2023. – 54 b.

³⁹ Кухарева Е. Клише как отражение национального менталитета (на примере арабских паремий): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М.: 2005. – С. 10.

⁴⁰ ابی هلال العسكري. جمہرة الامثال تحقيق محمد ابو الفضل وعبدالمجيد .احمد بن محمد میدانی. الامثال العربية. الصفحات ٧٩٨ تاریخ الإنشاء ١٥ ابریل ٢٠١٦. قطامش. طبعة اولى ١٩٦٤

⁴¹ *Qarang*: Muhammad As-Sulaim. A critical and comparative study of modern najdi Arabic proverbs: For the degree of Doctor of Philosophy. January, 1976. –555 p; Wafa Abu Bakr. The importance of proverbs in teaching Arabic. American University in Cairo, 2002. –137 p; Inam Ismael Taher. A Cognitive Semantic Study of the impact of socio-cultural factors on meaning. – Iraq: 2019. – 321 p.

⁴² *Qarang*: Webster Sheila K. Arabic Proverbs and Related Forms// Proverbium. 1986, №3. – Pp. 179-194. Azzar al-Zubeydiy. Patriarchal Concepts of Woman in English, and Arabic Proverbs// Al-Mustansiriyya university. The 18 th yearly conference of the collage of Basic Education. – Bagdad: 2017. – P. 13. Brosh H. Proverbs in the Arabic Language Classroom // International Journal of Humanities and Social Science. 2013. – Vol. 3, №5. – P. 19-29. Henry M. Karakacha, Omboga Zaja, Rayya Timammy, Kineene Wamutiso University of Nairobi. Objectification of women in Kiswahili and Arabic proverbs// The University of Nairobi Journal of Language and Linguistics, Vol. 8 (2020), – P. 108-116.

“Правда. Русские пословицы с названиями животных на фоне близких по смыслу арабских пословиц” nomli maqolasida 14 ta mavzudagi rus maqollarini arabcha muqobillari bilan qiyoslagan⁴³. Tadqiqotimiz davomida arab xalq maqollarini o‘rganib, tahlil qilish natijasida ularni quyidagi mavzuiy guruhlarga ajratdik: 1) vatanparvarlik; 2) rostgo‘ylik va yolg‘onchilik; 3) birdamlik; 4) botirlik va qo‘rroqlik; 5) yaxshilik va yomonlik; 6) yumshoqlik va qattiqqo‘llik; 7) baxt va baxtsizlik; 8) pand - nasihat; 9) aqlilik va nodonlik; 10) mehribonlik va g‘azab; 11) ayyorlik; 12) topqirlik; 13) ehtiyotkorlik; 14) sog‘liq va bemorlik; 15) osonlik va qiyinchilik; 16) savob va gunoh; 17) go‘zallik; 18) ishchanlik va dangasalik; 19) omad va omadsizlik; 20) boylik va faqirlik; 21) kamtarlik va manmanlik; 22) osonlik va qiyinchilik; 23) sahiylik va baxillik; 24) maqtanchoqlik va kibr; 25) sevgi va vafodorlik; 27) yoshlik va qarilik; 28) oilaviy munosabatlar; 29) hayat va o‘lim; 30) ochlik va to‘qlik; 31) sabr va qanoat; 32) qarindosh-urug‘chilik; 33) qo‘shnichilik munosabatlari; 34) do‘stlik va dushmanlik; 35) sergaplik va kamgaplik; 36) to‘g‘rilik va xato; 37) mohirlilik va noshudlik; 38) diniy mavzu;

To‘plamlarda har bir mavzudagi maqollar arab xalqining turmush tarzi, geografik joylashuvi, qadriyatları, diniy e’tiqodidan kelib chiqib, so‘zlar tanlangan: – النظافة من الإيمان أولى بالمعروف – *Avval xesh – keyin darvesh, Tozalik* – بالثمرة العَرَابُ أَعْرَفُ *Badaviy bir marta aldanadi; iymondandir*; – لا يُخَدِّعُ الْأَعْرَابُ إِلَّا وَاحِدَةٌ – *Rasūl dīnīn al-ma‘rifa* – *Dinning asosi – ma’rifatdir*⁴⁴.

Arab xalq maqollaridagi so‘zlar nafaqat adabiy tilda, balki shevalarda ham *اللَّيْ اِيَّدَهُ فِي الْمِيَّةِ* – *qo‘li suvdagi odam, qo‘li olovdag‘i odam kabi emas.* Shu bilan bir qatorda o‘xshatishlardan unumli foydalaniladi. Maqoldagi *مش زِيَّ الَّيْ اِيَّدَهُ فِي النَّارِ* – *so‘zlar arab so‘zlashuv tilidagi muqobilidir. Maqolda ikki xil sharoitdagi inson bir-birini tushunmasligi metafora orqali ifodalangan. O‘zbek tilida Och bilan to‘qning na ishi bor, Och qadrini to‘q bilmas*⁴⁵ *kabi maqollari shu semantikada ishlatiladi.*⁴⁶ *اللَّيْ يَتَلَسَّعُ مِنَ الشُّوْرَبَةِ يَنْفَخُ فِي الزَّبَادِيِّ* – *sho‘rva ichib og‘zi kuygan, qatiqni ham puflaydi.* O‘zbek tilida ham xuddi shunday leksik birlik bilan ifodalanadigan *Sutdan og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi* maqoli mavjud. Ushbu maqol biror bir ishdan omadsizlikka uchragan inson, keyingi safar o‘ta ehtiyotkor bo‘lishini bildiradi.

Bobning “O‘zbek xalq maqollarining mavzuiy guruhlari va semantik tahlili” nomli ikkinchi faslida o‘zbek maqollari mavzuiy guruhlarga ajratilgan hamda ular semantik jihatdan tadqiq etilgan. O‘zbek xalq maqollari arab xalq maqollari kabi o‘ziga xos semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish maqol, matal, so‘z o‘yinlari, qochirimlar tushunarli tilda, ortiqcha bezaklardan xoli, lekin mazmun-mohiyati chuqurligi bilan e’tiborni tortadi. O‘zbek xalq maqollarining bir necha xil to‘plamlarda turli mavzuviy guruhlari berilgan. Masalan, M.Afzalov boshchiligidagi tayyorlangan to‘plamning keyingi nashriga 2500 dan ortiq maqol 34 mavzuga bo‘lib berilgan bo‘lsa, R.Jumaniyozov to‘plamining so‘nggi nashrida

⁴³ Lafta Adnan Xabib, Ю.Т. Листрова - Правда. Русские пословицы с названиями животных на фоне близких по смыслу арабских пословиц// Вестник ВГУ Серия Лингвистика и межкультурная коммуникация. July, 2008. Volume 3. – С. 50-54.

⁴⁴ <https://archive.org/details/ArabicEnglishProverbs>. –B15-25.

⁴⁵ <https://myfarzand.uz/maqollar-ochlik.html>

⁴⁶ <https://industryarabic.com/arabic-proverbs/>

1047 maqol 22 mavzu ostida jamlangan. Yoki B.Rahmonov to‘plamiga 564, Sh.Jo‘rayev to‘plamiga 711 maqol kiritilgan, xolos⁴⁷. T.Mirzayevning 13 ming maqol kiritilgan “O‘zbek xalq maqollar” to‘plamida maqollar 70 mavzuiy guruhga bo‘lingan⁴⁸.

To‘plamlardagi mavzuiy guruhlar sonining har xilligi, to‘plamga jalb qilingan maqollar soni bilan bog‘liq. Tadqiqotimiz doirasida bir necha mavzuiy guruhlardagi maqollarni tahlilga tortdik: 1) *vatanparvarlik*; 2) *birdamlik* 3) *mehnatsevarlik*; 4) *halollik*; 5) *to‘g‘rilik*; 5) *boylik* va *kambagallik*; 6) *kamtarlik manmanlik*; 7) *yaxshilik* va *yomonlik*; 8) *hayvonlar haqida maqollar*; 9) *shirinso‘zlilik*; 10) *adolat*; 11) *do‘stlik* va *dushmanlik*; 12) *tinchlik*; 13) *botirlik* va *qorqoqlik*; 14) *tenglik*; 15) *ochlik* va *to‘qlik*; 16) *donolik* va *nodonlik*; 17) *ilmlilik*; 18) *mardlik* va *nomardlik*; 19) *tarbiya*; 20) *odob* va *odobsizlik*; 21) *mehmondostlik*; 22) *saxiylik* va *baxillik*; 23) *go‘zallik* va *kamtarlik* 25) *omad* va *omadsizlik*; 26) *epchillik* va *to‘g‘riso‘zlik*; 27) *sabr-qanoat* va *qanoatsizlik*; 28) *mehr-oqibat* va *oqibatsizlik*; 29) *qadr-qimmat*; *sevgi-muhabbat* va *bevafolik*; 30) *oilaviy munosabatlar*; 31) *qarindosh* va *qoshnichilik*; 32) *umid*, *maqsad*, *umidsizlik*; 33) *ishonch* va *ishonchsizlik*; 34) *erkinlik* va *barqarorlik*; 35) *ahillik, or- nomus*; 36) *g‘urur* va *hayo*; 37) *samimiylilik*, *farosat* va *andishhalilik*; 38) *samaradorlik*; 39) *boylik* va *kambag‘allik*; 40) *meyor* va *tadbirlilik*; 41) *vaqt* va *umr*; 42) *ehtiyotkorlik*; 43) *sog‘lik*; 44) *dehqonchilik* va *chorvachilik*; 45) *quvonch* va *qayg‘u*;

Shu mavzuiy guruhlar ichida o‘zbek xalqining o‘ziga xos jihatlaridan bo‘lmish mehmondo‘stlik, yaqinlarga hurmat, nonni e’zozlash, tuzga munosabat kabi masalalarni aks ettirgan maqollar alohida o‘rin tutadi. Masalan, “*Non yemasning ishiga boq!*”, “*Non pishguncha kulcha kuyadi*”, “*Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber*”, “*Tuzini yeb, tuzlig‘iga tupurma*” kabi bir necha maqollar to‘g‘ri va majoziy, ya’ni tag ma’noga ham ega.⁴⁹ O‘zbek xalq maqollarida hayvon nomlari asosida yoxud diniy marosimlar natijasida yuzaga kelgan maqollar ham mavjud. Hayvon nomlari doirasida shakllangan o‘zbek xalq maqollari, odatda, hayvonlarning tabiat, fe’l-atvori, tashqi ko‘rinishi, harakati, tovushi, harakat tarzi, biologik xususiyati asosida yuzaga kelgan. Maqollardagi hayvon nomlari inson sifatlarini ifodalovchi bo‘lib xizmat qiladi⁵⁰. Shuningdek, o‘zbek xalqining urf-odatlari, qadriyatlar, milliyligini anglatuvchi bir necha maqollar mavjud: *Baxmal bilan banotning ko‘hnaligi bo‘lmas, Ota bilan onaning – qariligi. Kimxob to‘ning bo‘lguncha, oltin beshiging omon bo‘lsin* (O‘XM,116). Baxmal va banot so‘zi gazlama nomini bo‘lib, O‘zbekiston (Buxoro va Samarcand)da qadimdan ishlab chiqariladi. Kimxob ham qimmatbaho mato bo‘lib, uni to‘qish Buxoro, Shahrisabz, G‘ijduvon shaharlarida qadimdan rivojlangan. Beshik esa chaqaloqni belash uchun ishlatiladigan maxsus belanchak. Azaldan o‘zbek xalqi bolasini beshikda katta qilgan.

⁴⁷ Мирзаев Т.М. Сўздан сўзнинг фарқи бор// Ўзбек халқ мақоллари. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ozbek-xalq-maqollarlari.html>

⁴⁸ Мирзаев Т. Сўздан сўзнинг фарқи бор/ Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2016. –258 б.

⁴⁹ Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дис. – Самарқанд: 2019. – Б. 145.

⁵⁰ O’sha asar. – B. 81-133.

*O'zi kelgan yor-yor, o'zi ketar yor-yor*⁵¹: “Yor-yor” nikoh to‘yi marosimlarda aytildigan xalq qo‘sishig‘i, qadimdan o‘zbek, tojik, turkman, uyg‘ur xalqlari orasida keng tarqalgan. Ushbu maqol uyiga arazlab ketib qolgan kelinlarga ishlatiladi. *O'zbekka osh yaxshi, qozoqqa – go'sht, Umringdan bir kun qolguncha, osh ye, pulingdan bir tiyin qolguncha, osh ye. Mehmon kelsa, pastga tush, palov bermoq ahdga tush* (O‘XM,84): “Palov” yohud “osh” o‘zbekning eng asosiy milliy taomi hisoblanadi. Uyga mehmon kelganda ham uni palov bilan mehmon qilish an’anaga aylangan. Bu o‘sha mehmonga o‘ta hurmat ko‘rsatilganligi belgisi hisoblanadi. *Mehmon otangdan ulug‘ maqoli ushbu urf-odat asnosida yuzaga kelgan*. Shuningdek, mehmon kelganda uni uyning to‘riga o‘tkaziladi, mezbon esa dasturxonning past qismida o‘tiradi. Mana shunday urf-odatlar, qadriyatlar asnosida yuzaga kelgan maqollar o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliylikni anglatadi.

Bobning “*Arab va o'zbek xalq maqollarining umumiy va farqli xususiyatlari*” nomli uchinchi faslida har ikki xalq maqollarining mushtarak va farqli xususiyatlari yoritilgan.

“Islom dini Markaziy Osiyoga kirib kelgandan so‘ng arab tili turkiy xalqlar orasida shunday o‘rin egalladiki, hatto arab xalq maqollarini adiblarimiz o‘z asarlariga kiritishni boshlashgan. Bobur she’riyatida o‘zbek xalq maqollaridan tashqari, boshqa xalqlarning ham maqollarini kuzatish mumkin. Jumladan, shoirning bir qit’asida arab xalqiga tegishli الرفيق ثم الطريق “*Alrafiyu summa tariq*” maqoli qo‘llangan.

*Tariqi faqr suluk ahlig‘a ne xush yo‘ldur,
Vale bu yo‘lda keraklik turur rafiqi shafiq.
Tariqi faqr agar istasang, beri kelkim,
Suluk ahli demish: “alrafiyu summa tariq”*⁵².

Maqol mazmuni “Avval hamroh tanlab, keyin yo‘lga chiq” bo‘lib, o‘zbek xalq maqollari orasida ham shunga o‘xshash maqollar mavjud. *Yo‘l topguncha, yo‘ldosh top; Yo‘lga chiqsang, yo‘ldoshli chiq; Yo‘lga chiqsang yaroq ol, yaroq emas, hamroh ol; Yo‘lga chiqsang yaroqli chiq, yolg‘iz chiqmay hamrohli chiq* .

Т.Шайхуллин “Русские и арабские паремии с компонентом-наименованием родственных отношений: концептуально-семантический и этнокультурный аспекты” nomli ilmiy ishida quyidagicha yozadi: Arab maqollarida antroponimlar ma'lum kishilarni bildirsa, rus tilida ular ko‘proq qofiya, tovush uyg‘unligini yaratish uchun ishlatiladi. N.Aliferenko ta’kidlaganidek, “rus maqollaridagi kishi ismlari nafaqat ma'lum odamlarni nomlaydi, balki asosan qofiya uchun ishlatiladi yoki ular xalq orasida juda keng tarqalgan”⁵³ – اسق را قش انها ساقیة . *Roqashga suv ber, albatta, u suv beruvchidir.* Tarjimasi: Roqash – o‘zi doimiy ravishda odamlarga sub tarqatuvchi meshkob ayol. Bu maqol doimiy ezgu amallar bilan shug‘ullanuvchi kishilarga mehr va saxovat bilan munosabatda bo‘lishga chorlaydi⁵⁴. Shaxs nomlari keltirilgan arab maqollarining o‘zbek tilida aynan

⁵¹ <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari/muhabbat-va-bevafolik-haqida-maqollar>

⁵² Ma’nos: avval hamroh tanlab, keyin yo‘lga chiq.

⁵³ Шайхуллин Т.А. Русские и арабские паремии с компонентом-наименованием родственных отношений: концептуально-семантический и этнокультурный аспекты: Автореф. дис. д-ра. филол. наук. – Казань: 2012. – С. 40.

⁵⁴ <https://shamela.ws/book/12929/1828>

muqobili mavjud emas. Sababi bu maqollar arab millatiga mansub shaxslar – millat qahramonlari bilan bog‘liq tarzda yuzaga kelgan. Shuning uchun ham bunday maqollarni tarjima qilishning imkonи yo‘q.

O‘zbek tilida ham antroponimlar ishtirok etgan maqollar mavjud. Maqollarda keltirilgan ismlarning ba’zilari aniq shaxsni bildirsa, ba’zilari faqat ma’no uchun xizmat qiladi:

Qizil Xizrni aynitar.

Sulaymon o‘ldi, devlar qutuldi.

Rajab tulki qorovul bo‘ldi, Xotini erovul bo‘ldi.

Otasini so‘rasang – Ahmadi forig’, Onasini so‘rasang – tovoni yoriq (O‘XM,79,150,162,168).

Shuningdek, arablar ko‘pincha odamni xarakterlaganda, u bilan doimiy ravishda muloqotda bo‘lgan, yonida yashagan, ularni kuzatgan hayvonlar bilan solishtirishadi . Bunga ushbu maqollar misol bo‘la oladi:

– لا يسهل اقتناص الكلب العجوز – Qari tulki osonlikcha tuzoqqa tushmaydi.

– كلب حي خير من أسد ميت⁵⁵ – Tirik it o‘lik arslondan afzalroq.

O‘zbek xalq maqollarida ham qaysidir insoniy fazilatni biror bir hayvonning harakati bilan solishtiradigan maqollar mavjud:

Er so‘zidan, arslon izidan qaytmas.

Odamga – lafz, go‘salaga – dum.

Ot boshiga ish tushsa, suvlig‘i bilan suv ichar, Er boshiga ish tushsa, etigi bilan suv kechar. (O‘XM,54,79,83).

Har bir xalqning og‘zaki ijodida o‘ziga xos xususiyatlar mavjud bo‘ladi. Ana shunday xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan ayrim maqollarga e’tiborga molik:

– الحُسْنُ أحْمَرُ – *Al-husnu ahmar - Go‘zallik qizillikdadir.* Al-Azhariy qizarish oqlikdir, deb sharhlagan. Arablar fors va Rimdan kelgan qullarni “al-humr” deb atashgan, chunki ular orasida ochiq tanli odamlar mavjud bo‘lgan⁵⁷. O‘tmishdagi arablar tilida ranglarni ifodalashda, ayniqsa, oq va qizil ranglar orasida chalkashlik bor. Ibn Manzur shunday deydi: “*Qizil: Oqdir... Shunday deyiladi: Mening oldimga barcha qoralar keldi, oralarida qizillar ham bor. Oqlar deyilmagan. Bu yerda gap arab va arab bo‘lmaganlar haqida ketyapti*⁵⁸”.

O‘zbek maqollaridagi o‘ziga xoslik o‘zbek xalqining sinfiy tabaqalanishiga borib taqaladi: “*Xo‘janing qizi erga tekkuncha, tuyaning dumi yerga tegadi*” maqolini olaylik. “Tuyaning o‘zi katta bo‘lsa ham, dumi kalta bo‘ladi, hech qachon o‘sib borib yerga tegmaydi... Qari qizlar, asosan, xo‘jalarning qizlari orasida uchraydi. Xo‘jalar o‘zlarini qorachalarning qizlari va ayollariga uylanaveradilar, ammo o‘z qizlarini faqat xo‘jalarga beradilar”⁵⁹.

“Oqlarni” atashda qizil rangdan foydalanish yoki “xo‘ja” qizlari haqidagi maqollar ushbu ikki xalqning madaniyati, urf-odatlari, nutqda so‘zdan

⁵⁵ <https://books.moswrat.com/moswrat.com-ku-10647.pdf>

⁵⁶ <https://shamela.ws/book/12929/1069>

⁵⁷ ٧٨. ص ٢٠١٦. تاريخ الإنسانية. الأمثل العربية. الصفحات ١٥-٧٩٨. أبريل ٢٠١٦. احمد بن محمد ميداني.

⁵⁸ <https://www.diwanalarab.com>

⁵⁹ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Ўзбек Энциклопедияси нашриёти. 1990. – Б. 423.

foydalishdagi mohirlik maqollarda aks etgan til va madaniyat uyg‘unligini, ya’ni lingvomadaniy xususiyatlarni ko‘rsatadi.

Tadqiqotning “*Arab va o‘zbek xalq maqollarining milliy madaniy xususiyatlari*” nomli uchinchi bob, arab va o‘zbek tilidagi ayollar, qarindosh-urug‘chilik va diniy mavzudagi maqollarning semantik tadqiqiga bag‘ishlangan. Bobning “*Arab va o‘zbek tillarida ayollar mavzusidagi xalq maqollarning milliy-madaniy belgilari*” nomli birinchi faslida ayollar mavzusidagi arab va o‘zbek xalq maqollarining umumiy va farqli xususiyatlari yoritilgan.

Arab xalqida, barcha islom diniga e’tiqod qiluvchi xalqlar kabi ayollardagi ibohayo, iffat kabi xislatlar ularning chiroylaridan ko‘ra qadrlanadi. Ayol kishi nafaqat husni, balki hayo-ibosi bilan go‘zal bo‘lishi uqtiriladi. Shuningdek, ayol kishining aqli bo‘lishi kerakligi, aqli ayol xazinaga tengligi ham ta’kidlanadi. Ayol kishining husni haqida gap ketarkan, albatta, muqaddas kitob Qur’oni karimga ham murojaat qilinadi. Chunki Qur’oni karim arab tilida nozil bo‘lganligi sababli arab xalqining milliy-madaniy merosiga aylangan. Islom dinida ayollarni zehnli bo‘lishlari hamda chiroylarini boshqalardan yashirishlari uqtiriladi. Arab xalqi uchun ayollarning eng muhim jihatlaridan biri – bu ularning kamtarliklaridir. Shu sababli go‘zallik tushunchasi deganda, nafaqat tashqi go‘zallik, balki ichki go‘zalligi ham tushuniladi.

حياء المرأة أشد جاذبية من جمالها Ayolning hayosi uning chiroyidan ko‘ra jozibaliroqdir⁶⁰.

Shuningdek, arab xalq maqollarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, ayol kishining aqliy qobiliyati tanqid qilinganiga ham guvoh bo‘lamiz. Iroq xalq maqollarida ayollar haqida shunday deyiladi:

دماغ المرأة في تجعيد الشعر

Ayolning miyasi uning sochidagi jingalaklaridadir.

O‘zbek xalq maqollarida ham ayollar to‘g‘risida “*Sochi uzun – aqli kalta*”, “*Ayoling yaxshi bo‘lsa suf-suf, yomon bo‘lsa, bo‘larsan faylasuf*”⁶¹ kabi hazilomuz o‘xhatmalar ham bor.

اسأل زوجتك و افعل العكس: Yana bir Iroq maqolida:

*Ayolindan maslahat so‘ra, lekin aytganining aksini qilgin*⁶².

Ayollar haqidagi o‘zbek xalq maqollarini ko‘rib chiqar ekanmiz, ba’zi salbiy jihatlarning yig‘indisidan tashkil topgan maqollar ham ko‘zga tashlanadi:

Sergaplik: *Elakka borgan ayolning ellik og‘iz gapi bor. Qizil tilim tiyolmadim, qizimnikiga borolmadim.*

Makr: *Bir xotinning hiylasi qirq tuyaga yuk bo‘ladi.*

Aqliy qobiliyatining pastligi: *Hayt desa, it yugurar, itdan oldin – qiz.*

Xavfliligi: *Bolaga tegma, balosi chiqadi, xotinga tegma – qasosi chiqadi.*

Turmush o‘rtog‘ining qarindoshlari bilan munosabati: *Kelsa xotin urug‘i – topiladi yo‘rig‘i, kelsa arning urug‘i – bo‘lar yurak burug‘i.*⁶³

⁶⁰ <https://bakhdida.ca/Nisreen/SWoman.htm>

⁶¹ <https://inscence.uz/index.php/foreign-linguistics/article/download/4508/4401/12749>

⁶² Azxar al-Zubeydiy. Patriarchal Concepts of Woman in English, and Arabic Proverbs. Al-Mustansiriyya university. – P. 5.

⁶³ Mahmudova N. Comparative analysis of the concept woman in English and Uzbek proverbs// V Международная научная конференция “Современная филология”. – Самара: 2017. – С. 16.

Shuningdek, ayollar nafaqat rafiqqa, ona, opa-singil, balki otalar uchun qiz farzand hamdurlar. Arab tilida qizlarning hayotida otaning muhimligi haqida shunday maqol mavjud:

– كل فتاة بأبيها معجبة⁶⁴ Har bir qiz uchun o‘z otasi sevilmidir. Ushbu maqolda ota va qiz o‘rtasidagi munosabatlar yoritiladi. Qiz farzand hayotida ota alohida o‘rin egallashi ko‘rsatilgan. O‘zbek xalq maqollarida ham ota va farzand mavzusida bir necha maqollar mavjud, lekin ular semantik jihatdan bir muncha farq qiladi. Maqollarda oilada otaning o‘rni, farzandning ne’matligi umumiy tarzda ifodalanadi: *Onangni quyosh bilsang, Otangni oy bil, Yaxshi o‘g‘il — el obro‘si, Yaxshi qiz — uy obro‘si. O‘g‘il bilan qizing — Bamisoli ikki ko‘zing. O‘g‘il-qiz dono bo‘lsa, El-u yurt xursand.* Shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarida oilada ko‘proq o‘g‘il farzand kutilishi *Xotinim qiz tug‘di deb o‘pkalama, Sherning erkak-urg‘ochisi barobar, O‘g‘il otasi mard bo‘lsa, Qiz otasi — bechora* kabi maqollarida ham ifodalangan. Chunki qiz farzandni voyaga yetgach, boshqa xonadonga uzatib yuboriladi. Shuning uchun *Qizning bo‘yi yetdi - boshingga yov yetdi, Qiz — meniki, baxti — o‘zganiki* (O‘XM,137-150) maqollari xalq orasida mashhur.

O‘zbek tilidagi maqollarda go‘zallik masalasi ko‘pincha ayollar ishtirokidagi antropotsentrik maqollarda uchraydi. Bunday maqollarda “noz”, “suluv”, “husn” va “sunbul” kabi so‘zlar keng qo‘llaniladi. “Ayolning nozidan qo‘rq, ahmoqning so‘zidan”, “Ayolning sunbuli-yigitning dili” (O‘XM,126). Shuningdek, yosh masalasi ham asosan ayollar ishtirokidagi antroposentrik maqollardagi gender munosabatini salbiy jihatdan ko‘rsatadi: “Er qarisa erki ketar, xotin qarisa ko‘rki”, “It qarisa tozi bo‘lar, qiz qarisa qozi”⁶⁵. Arab tilida shu semantikani anglatuvchi maqol mavjud: – عمر الرجل كما يشعر وعمر المرأة كما تبدو: *Erkakning yoshi qanday his qilishi bilan, ayolning yoshi qanday ko‘rinishi bilan belgilanadi.*

Bobning “Arab va o‘zbek tillarida qarindosh-urug‘chilik mavzusidagi maqollarning universal xususiyatlari” nomli ikkinchi faslida qarindosh-urug‘chilik mavzusidagi arab va o‘zbek xalq maqollarining umumiy va farqli xususiyatlari yoritilgan.

Qarindosh-urug‘chilik haqidagi maqollarda har ikki xalqning mentalitetidan kelib chiqqan holda o‘zaro xurmat, mehr-oqibat, og‘a-inichilik munosabatlariga e’tibor kuchli ekanligini ko‘rish mumkin. Arab xalqlarining tarixiga nazar tashlasak, arab jamiyatida shaxs erkinligidan ko‘ra uy, oila, jamiyat, qabila boshliqlariga bo‘ysunish, birdamlikka da‘vat etish kabi tamoyillarga guvoh bo‘lamiz. Badaviy qabilalarning yozilmagan qonunlariga ko‘ra, qabiladoshlar har bir jamoa a’zosining qabila ichida ham, tashqarisida ham xulq-atvoriga javobgar bo‘ladi. Shuningdek, har bir oila o‘zining ichida ham ichki tamoyillarni, ya’ni kichiklar kattalarga bo‘ysunadigan odatlarni saqlab qoladilar.

أقليوا ذوي الهمبات عن رأيهم

Kattalarni xatolari uchun ayblamang.

من أشباه أباء فما ظلم

⁶⁴ الشيخ سفر الحمداني. الأمثل والحكم العربية.طبع الأول. ٢٠١١. ص ٣٤

⁶⁵ Jumaniyozova Z. Ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarida ayol obrazining semantik jihatdan ifodalanishi// Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023. – №11. – B. 108-111.

Otasiga o‘xhashning aybi yo‘q⁶⁶.

⁶⁷ - من عاشر قوماً أربعين يوماً صار منهم (biror-bir qavm bilan qirq kun birga yursang, ulardan biriga aylanasan) ushbu maqol o‘zbek xalqida ham mavjud bo‘lib, “Qozongga yaqin yursang, qorasi yuqadi”, “Do‘sting kimligini ayt, sening kimligingni aytaman” (O‘XM,30,142) kabi ifodalanadi. Ushbu maqollarda inson o‘zini o‘rab turgan jamiyat, atrof-muhit ta’siri ostida bo‘lishi ta’kidlanadi.

⁶⁸ - عن أخاك و لو بالصوت (O‘z akangga hech bo‘lmasa, ovoz bilan yordam bergin) Aka-ukalar doim bir-birining yordamiga muhtoj bo‘ladi. Shunday vaqtida “undan qochmagin, yordamingni ayamagin”, deyiladi. Ushbu maqolda agar biror-bir narsa bilan yordam berish qo‘lingdan kelmasa, hech bo‘limganda shunga harakat qilib ko‘rgin, deyiladi. Eng kichik ko‘mak ham insonga asqotishi mumkin. O‘zbek tilida ham *Sulton suyagini xo‘rlamas*⁶⁹, *Og‘a-ining totuv bo‘lsa, ot ko‘p, opa-singling totuv bo‘lsa, osh ko‘p* (O‘XM,160), *Tirsak yaqin bo‘lsa ham, tishlab bo‘lmas* (O‘XM,214) maqollari mavjud.

Qarindosh-urug‘chilik, begonalik haqida bir qator o‘zbek maqollarida bir so‘z qaytarilmaydi, balki qarindoshchilik mavzusiga tegishli so‘zlarning sinonimlaridan keng foydalilanadi: *Begona bilan quyon ovlama, ovlasang ham, yoningga boylama; Tutingan tug‘ishgandek bo‘lmas; Yot otgan toshdan jigar otgan uvada qattiq tegar*(O‘XM,130-134). Arab xalq maqollarida esa “خ” – aka so‘zining ko‘proq qo‘llanilganini ko‘rish mumkin.

O‘zbek xalq maqollarida ushbu turkum maqollarida nafaqat qarindosh balki **og‘a-ini**– *Og‘a-ini arazli bo‘lsa ham, g‘arazli bo‘lmas, Og‘a-inining ozganin, o‘zlar emas, yot bilar, jigar*– *Jigar — jigar, digar — digar, Yot otgan toshdan jigar otgan uvada qattiq tegar, oshna*– *To‘yar oshni ko‘z taniydi, Oshnani — ko‘ngil, urug‘-Qarindoshim- qora qozonim, urug‘im- unli chuvolim, urug‘-aymog‘- Urug‘-aymog‘im — quyuq qaymog‘im, xesh*– *Xeshlik — xushlik* (O‘XM,132-134) kabi leksemalardan ham foydalilanadi.

Bobning “Arab va o‘zbek tillarida diniy mavzudagi xalq maqollarining milliy-madaniy tahlili” nomli uchinchi faslida diniy mavzusidagi arab va o‘zbek xalq maqollarining umumiyligi va farqli xususiyatlari yoritilgan.

Arab va o‘zbek tillaridagi diniy mavzudagi maqollarda har ikki xalqning e’tiqod qiladigan dini Islom ekanligi uchun, tushunchalar o‘xhashligini ko‘rsatadi.

Bir qator maqollarni ko‘rar ekanmiz, diniylik arab xalqining mentalitetiga aylanganiga guvoh bo‘lamiz:

ذرة من الایمان بتصنع المعجزات

“Birgina iymon zarrasi mo‘jizalarni keltirib chiqaradi”.

رأس الحكمة مخافة الله

⁶⁶ Крылов А. Социолингвистические, лингвокультурологические и функционально-прагматические особенности речевого поведения носителей арабского и русского языков: Дис. ... канд. филол. наук. – Военный университет МО РФ, кафедра ближневосточных языков. – М.: 2017. – С. 123.

⁶⁷ <https://www.islamweb.net/ar/fatwa/149953/>

⁶⁸ ٧٨ ٢٠١٦ ص. ١٥ بتاريخ الإنشاء ٧٩٨. الأمثال العربية. الصفحات ١٥-٢٠١٦. /

⁶⁹ Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. (DSc) ... дис. – Самарканд: 2019. – Б. 56.

“Olimlikning boshi Allohdan qo‘rqishdir”⁷⁰.

Qur’oni karim hukmlari tafsir orqali xalq orasida keng yoyilgan. Bu hukmlar xalqning turmush tajribalaridan orttirgan xulosalari bilan omuxtalashib, ibratomuz pandlarga, ya’ni xalq maqollariga aylana boshlagan. Natijada xalq maqollari orasida Qur’on oyatlari bilan to‘yingan maqollar paydo bo‘lgan. Ayniqsa, sabr-u shukr, qanoat, tavoze, shirinso‘zlik, hurmat, ehtirom, odob mavzusidagi ko‘plab maqollar mazmuni Qur’oniy hukmlar va hadislar mazmuniga hamohang. Jumladan, Qur’oni karimning “Anfol” surasi 46-oyatida shunday deyiladi: ﴿وَأَطِيعُوا اللَّهَ وَرَسُولَهُ وَلَا تَنْزَعُوا فَنَفَّشُلُوا وَتَذَهَّبَ رِيحُكُمْ وَأَصْبِرُوا إِنَّ اللَّهَ مَعَ الصَّابِرِينَ﴾. “...Sabr-toqat qilingiz! Albatta, Alloh sabr qilguvchilar bilan birgadir” (QK,182). Bu oyatning aynan o‘zi bo‘lmasa ham, xalq tiliga yaqinlashgan holda maqolga aylanganganini *Sabr tagi – Rahmon* maqoli dalillaydi. Qur’oni karimning sabr haqidagi oyatlarining barchasida Alloh sabrlilarni sevishi, sabr tufayli banda ajr-u mukofotga sazovor bo‘lishi uqtiriladi. Ayni shu hukmlar xalqda sabr haqidagi *Sabr tagi – sari oltin, sabr bilan chiqar oting, Sabr tagi – sari oltin, qanoat – qizil oltin* kabi qator maqollarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan, deyish mumkin⁷¹.

Arab xalq maqollarida shoshqaloqlik qoralanadi. Buni quyidagi maqollardan ham ko‘rishimiz mumkin:

فِي التَّانِيِّ السَّلَامَةِ وَفِي الْعَجْلَةِ النَّدَامَةِ⁷²

“Sokinlikda yaxshilik, shoshqaloqlikda nadomat bor”. Bunday turdagи maqollar o‘zbek tilida ham uchraydi. *Yeti o‘lchab bir kes, Sabr – Rahmon dan, shoshqaloqlik – shayton dan, Shoshgan qiz erga yolchimas* (O‘XM, 110,111) kabi maqollar shular jumlasidandir.

Diniy mavzudagi arab va o‘zbek xalq maqollarida har ikki xalq uchun Islom dini umumiyligi uchun maqollarda ifodalangan ma’no ham mushtarakdir. O‘zbek tilida Qur’oni karim oyatlari hamda hadislar asnosida vujudga kelgan tushunchalardan ma’no saqlangan holda xalq maqollari yuzaga kelgan. Arab xalq maqollarida *Alloh* lafzi qo‘llanilsa, o‘zbek xalq maqollarida *Rahmon, Xudo* leksemalari ishlatiladi: *Yolg‘izning yori Xudo, Bo‘lmasa eldan judo; Ota rozi – Xudo rozi; Mehmon – atoyi Xudo; Xalq g‘azabi – Xudo g‘azabi*(O‘XM,3,10,11,84).

Diniy ta’limot asosida ifodalangan o‘zbek xalq maqollarida *Xudo, ro‘za, xayit, gunoh, dev* kabi asli arabiy bo‘limgan, turkiy yoki fors-tojik so‘zlaridan ham foydalanilgan. Shunga qaramay arab xalq maqollarida anglashiladigan Islom diniga oid tushunchalar ifodalangan ma’no yo‘qotilmagan.

⁷⁰ Кухарева Е.В. Арабские пословицы и поговорки. Словарь с лексико-фразеологическими комментариями / Е.В. Кухарева. – М.: ACT: ACT М.: Восток-Запад, 2008. – С. 40-43.

⁷¹ Рахматов Й. Мақол ва унинг ўзбек мумтоз адабиётидаги эволюцияси: Филол. фан. д-ри. (DSc) ... дис. – Тошкент: 2023. – Б. 75.

⁷² <https://www.almaany.com/en/dict/ar-en>

XULOSA

1. Arab va o‘zbek tilshunosligida maqollarni o‘rganish davrlari bir-biridan farq qiladi. Arab tilshunosligida nutq uslubining cho‘qqisi, deb ataluvchi maqollarni o‘rganish VIII asrdan boshlangan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida turkiy xalqlar maqollariga tegishli asar XI asrga taalluqlidir. Arab tilida maqol, matal, iboralar uchun umumiy bo‘lgan “masal” atamasi o‘zbek tilida ham XIX asrga qadar qo‘llanilgan, so‘ng arab tilida *nutq, gap* ma’nosini anglatuvchi “maqol” atamasi kirib kelgan.

2. Maqollarning nafaqat bir mamlakat doirasida, balki bir necha mintaqalarga yoyilishi natijasida, o‘zaro semantik chegaralar yuzaga keladi. Ushbu chegaralar maqollarda ifodalangan obrazlar va toponimlarda aks etadi. Har bir obraz yoki toponim o‘sha mamlakatning geografik joylashuvi, iqlimi, urf-odatlaridan kelib chiqadi. Arab xalq maqollarida obrazlar aniq bir shaxsni bildirsa, o‘zbek tilida ham anig‘ shaxsni anglatuvchi, ham umumiy ma’no ifodalovchi kishi nomlari orqali qo‘llaniladi.

3. Tadqiqotda 210 dan ortiq arab, 250 dan ortiq o‘zbek xalq maqollari keltirildi, har ikki xalq maqollaridagi umumiy va farqli xususiyatlar 5 ta jadval orqali berildi. Tadqiqotda o‘rganilgan maqollar asosida 38 ta arab, 45 ta o‘zbek xalq maqollari mavzuiy guruhlari ajratib ko‘rsatildi.

4. Arab va o‘zbek tillaridagi maqollarning mavzuiy tasnifi shuni ko‘rsatadiki, har ikki xalqqa hos bo‘lgan ezmilik, yaxshilik-yomonlik, oqillik va nodonlik, qarindosh va qo‘shnichilik, diniy tushunchalar kabi mavzudagi maqollar aksariyatni tashkil etadi. Arab xalq maqollariga hos bo‘lgan xususiyatlar maqollarda majozning qo‘llanilishi, shuningdek, qabilaviy-urug‘chilik tuzumining ifodalanishidir. O‘zbek xalq maqollarida esa farosat va andishalilik, geografik joylashuvdan kelib chiqqan holda, dehqonchilik va chorvachilikka doir maqollar ko‘p uchraydi.

5. Arab va o‘zbek xalqlarida maqollar adabiy tilda ham shevada ham ifodalanadi. Barcha arab mamlakatlari uchun yagona adabiy til mavjud, shu bilan birga og‘zaki nutqda har bir arab mamlakati o‘z shevasini qo‘llaydi. Shuning uchun xalq orasida shevada ifodalangan maqollar ham mashxur. O‘zbek tilida esa ushbu turkumdagi maqollar ko‘proq adabiyotlarda, personaj nutqlarini yoritishda qo‘llaniladi.

6. Ilm, hayot, boylik, ona haqidagi arab xalq maqollari o‘zbek xalq maqollari bilan chog‘ishtirilganda semantik xususiyatlar mushtarak ekanligi, ifoda vositalari bilan farqlanishi ko‘zga tashlandi. Har ikkala til maqollarida diniy tushunchalar doirasida, hadislar asosida shakllangan maqollar umumiylilik kasb etadi. Arab va o‘zbek xalq maqollarida hayvon va o‘simlik nomlari o‘xshatish vositasi bo‘lib kelgan holatlar juda ko‘p uchraydi. Bunday o‘zbek maqollarida boshqa hayvon nomlari bilan birgalikda “it” zoonimi ko‘p ishlatilsa, arab maqollarida “tuya” nomi faol qo‘llanilganini kuzatish mumkin.

7. O‘zbek va arab xalq maqollarida voqelik ifodachisi sifatida tazod (zid qo‘yish), metafora (istiora), mubolag‘a san’ati, jonlantirish kabi badiiy-tasviriy vositalar ta’sirchanlikni, ixchamlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Boshqa tillardagi maqollar kabi arab va o‘zbek maqollari bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli xarakterga ega.

Maqollarning yana bir mushtarak jihat shundaki, unda rivoyatlar yoki hikoyatlar asosida yuzaga kelgan shakllar ko‘p kuzatiladi.

8. Arab va o‘zbek tillarida ayollar mavzusidagi xalq maqollari semantikasi o‘ziga xos. Har ikki xalq islom diniga e’tiqod qiluvchi musulmonlardan iborat bo‘lganligi sababli maqollarda ayollar nozik xilqat, mehribon qiz, ona sifatida ulug‘lanadi. Arab va o‘zbek xalq maqollarida ayollar bir necha obrazlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu obrazlar orqali ayollarga nisbatan ba’zan ijobjiy, ba’zan salbiy munosabatni ko‘rish mumkin. Har ikki xalq maqollarida qizlarga munosabat, bevosita oila, turmush konsepti bilan bog‘lanadi.

9. Arab va o‘zbek tillarida qarindosh-urug‘chilik mavzusidagi maqollar faol ishlataladi. Ular lingvomadaniy jihatdan bir-biriga yaqinligi bilan xarakterlanadi. Qarindosh –urug‘chilik haqida maqollar bevosita qo‘shnichilik, mehmondo‘stlik turkumidagi maqollar bilan bog‘lanadi. Arab xalq maqollarida qadimgi badaviy arab qabilalariga hos bo‘lgan birdamlik, o‘zaro xurmat, qabila boshliqlariga bo‘ysunish maqollarda ham aks etgan. O‘zbek xalq maqollarida esa ushbu tushunchalar oilaviy munosabatlarda aks etadi.

10. Diniy mavzudagi o‘zbek xalq maqollarini Qur’on tafsiri ta’sirida, hadislar sharhi jarayonida, diniy rivoyat va hikoyatlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan maqollar tarzida tasniflash mumkin. Bunday maqollar har ikki xalqda ham yagona birlashtiruvchi din – Islom dini asosida yuzaga kelganligi uchun semantik jihatdan bir-biriga o‘xshaydi. Savob-gunoh, jannat-jahannam, hayot-o‘lim, e’tiqod kabi mavzuiy guruhlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shuningdek, arab tilida aynan Qur’on va hadislar asosida yuzaga kelgan maqollar ham talaygina.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

УНИВЕРСИТЕТ ОРИЕНТАЛ

ТАДЖИЕВА УМИДА ФАХРИТДИНОВНА

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
ПОСЛОВИЦ НА АРАБСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

АВТОРЕФЕРАТ

Диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована за номером B2024.3.PhD/Fil4208 в Высшей Аттестационной Комиссии Республики Узбекистан.

Докторская диссертация выполнена в университете Ориентал.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsous.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Насирова Малика Анваровна
кандидат филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Шамусаров Шарустам Гиясович
доктор филологических наук, профессор

Джураева Бибиш Мухсиновна
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Защита диссертации состоится “____” _____ в _____ часов 2025 года на заседании Научного совета на DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения (Адрес: 100060, Ташкент, улица Амира Темура, дом 20. Тел: (99871) 233-45-21; faks: (999871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz).

С диссертации можно ознакомится в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (Зарегистрирована за номером ____). Адрес: 100060, Ташкент, улица Амира Тимура, дом 20. Тел: (99871) 233-45-21.

Автореферат диссертации разослан «____» _____ 2025 года.

(Протокол реестра рассылки за номером _____ от«____»_____ 2025 года).

А.М.Манинов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н., профессор

Н.Р.Исматуллаева

Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, PhD, доцент

Х.З.Алимова

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней д.ф.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике с первой четверти прошлого века начало уделяться серьёзное внимание изучению языковых единиц с лингвокультурологической точки зрения. В исследованиях, проведённых в этом направлении, язык рассматривался как целостная система, в которой единицы изучались во взаимосвязи и взаимоотношениях; анализировалось их речевое проявление и значения, возникающие в процессе использования. Изучение языковых единиц во взаимодействии и противоречии позволило выявить их неочевидные свойства. В настоящее время достигнуты значительные успехи в изучении структурно-семантических, национально-мышленческих, когнитивных, универсальных и лингвокультурных особенностей пословиц. Однако ряд актуальных вопросов в данной области остаётся нерешённым. В частности, исследование арабских и узбекских народных пословиц в лингвокультурном аспекте является одной из насущных проблем сравнительной лингвистики.

В мировой лингвистике проведены масштабные исследования, посвящённые принципам и методам, научным теоретическим основам изучения паремийных образцов, включая народные пословицы, которые неразрывно связаны с ментальными особенностями каждого народа, закономерностями языка и поэтическим мышлением. Особое внимание уделяется не только пословицам внутри одного языка, но и изучению различий и сходств паремий в родственных и неродственных языках, их сравнительно-типологическому анализу. В результате выявление особенностей пословиц в рамках разных типологических систем языков имеет важное значение для укрепления научно-практических основ сравнительной лингвистики и переводоведения, а также для теоретического обоснования и решения проблем перевода с одного языка на другой.

В нашей стране после обретения независимости серьёзное внимание уделяется не только изучению иностранных языков, но и сравнительному научному исследованию национального языка и иностранных языков. В ряде проведённых работ узбекский язык был исследован в сравнительном аспекте с родственными и неродственными языками, что позволило глубже раскрыть особенности нашего языка. В эпоху глобализации дальнейшее совершенствование исследований в данном направлении становится насущной потребностью. Ведь сравнительное изучение единиц разных языков даёт возможность определить их общие и частные черты. В этом смысле исследование лингвокультурных особенностей арабских и узбекских народных пословиц имеет важное значение не только для выявления лингвистических характеристик единиц двух языков, но и для прояснения вопросов, связанных с национально-культурными взглядами, мышлением и восприятием действительности разных народов. Это и обосновывает актуальность выбранной темы и необходимость её научного исследования.

Указ Президента Республики Узбекистан от 20 ноября 2020 года № РF-6084¹ «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.10.2020 yildagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-5058351>

языковой политики в стране», Постановление № PQ-4680² от 16 апреля 2020 года «О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в сфере востоковедения», Постановление № PQ-5117³ от 19 мая 2021 года «О мерах по выводу деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень», а также Указ № PF-60⁴ от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» и другие нормативно-правовые документы служат основой для реализации поставленных задач, и настоящее исследование в определённой степени способствует их выполнению.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и техники республики «Пути формирования системы инновационных идей и их реализации в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. С середины прошлого века в мировой лингвистике пословицы начали изучаться с различных аспектов⁵. В том числе, как в арабском, так и в узбекском языкоznании пословицы обоих народов рассматривались с точки зрения лингвистики и устного народного творчества. В частности, в узбекском языкоznании в исследовании Х. Абдурахманова⁶ были проанализированы синтаксические особенности пословиц. Также Б.Джураева изучила узбекские народные пословицы в семантико-стилистическом аспекте и составила первый «Краткий синонимический словарь узбекских народных пословиц»⁷. В исследовании М.Садриддиновой была изучена лексика узбекских пословиц и проведено её сопоставление с литературным языком и диалектами⁸. В работе П.Бакирова были освещены семантико-структурные особенности номиноцентрических пословиц на материале русского, узбекского и казахского

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.04.2020 yildagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, <https://lex.uz/docs/-4791086>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021 yildagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, <https://www.lex.uz/uz/docs/-5426736>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5841063>

⁵ Воробьев П.Г. Пословицы и поговорки в художественном творчестве и письмах А.С.Пушкина// Русский язык в школе. – М.: 1949. – №4. – С. 18-22; Ткаченко В.П. Вопрос о пословицах как материале фразеологии// Уч. зап. Саратовс. гос. пед. инс. Вып. XXX, 1958. – С. 123-127; Гаврин С.Г. К вопросу об отличии пословицы от поговорки в совр. русс. лит-ном языке// Уч. зап. Пермского госпединститута. Вып. 17. 1958. – С. 42; Карриев Б.М. Туркменские пословицы и поговорки. – Ашхабад: 1961. – 162 с.; Карсенбаев Р. Лексико-стилистические особенности казахских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата: 1961. – 24 с. Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1974. – №4. – Б. 52-55; Тўйчиев М. “Шинелли йиллар” романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши// Ўзбек фразеологиясидан тадқиқотлар. СамДПИ асарлари. – Самарқанд: 1971. – Б. 84-87.

⁶ Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф.дис. ... д-ра. филол. наук. – Ташкент: 1977. – 48 с.

⁷ Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз. ... дис. – Самарқанд: 2002. – 136 б.

⁸ Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: 1985. – 18 с.

